




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



60	Saida NORMAMATOVA, Surxondaryo qipchoq shevalarida chorvachilik oid leksika	703
61	Feruza QOSIMOVA, O‘zbek dialektologiyasida qo‘llanilgan transkripsion belgilar tizimi	707
62	Dilnoza RAIMBERDIYEVA, “Oychinor” dostonining fonetik dialektizmlari tahlili	711
63	Shohida MAMARAJABOVA, Uzun tumani areali bo‘ylab qo‘ng‘irot shevalarining tarqalishi	713
64	Shahzoda MURODOVA, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida boshlanma	717
65	Mohidil RAJAMATOVA, Parkent tumani folklori namunalari tahlili	723
66	Holida HUSANOVA, “Zarbulmasal”dagi maqollar tahlili	726
67	Gulsevar TURSUNOVA, Anvar Obidjonning bolalar adabiyotiga qo‘shgan hissasi	730
68	Malika AMINJONOVA, Namangan o‘zbek shevalarining o‘zbek adabiy tiliga munosabati	735
69	Behruz BOBOYOROV, O‘zbek tilida blingvizm hodisasi va uning o‘rganilish talqinlari	739
70	Nazokat QODIROVA, Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asari leksikasining tematik guruhlar	745
71	Shodiya QOSIMOVA, Muyassar XOLOVA, O‘zbek milliy korpusiga yozma matnlarni kiritishning metodologiyasi: tematik va metama’lumotli (Mingbuloq tumani misolida)	748
72	Muborak XAYDAROVA, Muyassar XOLOVA, Dialekt va nutq madaniyati	751
73	Muxlisa KUCHIMOVA, Mifologiyada hayvon obrazlarining badiiy ifodasi	748
74	Marjona TOG‘AY, “Qoraqayun” romanida qo‘llangan leksik dialektizmlar tahlili	752

UZUN TUMANI AREALI BO'YLAB QO'NG'IROT SHEVALARINING
TARQALISHI
DISTRIBUTION OF KUNGRAT DIALECTS ACROSS THE UZUN
DISTRICT AREA

Shohida MAMARAJABOVA,

ToshDO'TAU talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LIHR7684

Annotation. *This article analyzes the territorial distribution of Kungrat dialects in the Uzun district area of Surkhandarya region. The study explains the spread of the dialect through geographical position, ethnic composition, local clan structure, historical migration, economic life, and language contact. The Kungrat dialect area is conditionally divided into two groups: relatively stable Kungrat dialects preserving Kipchak phonetic features and mixed Kungrat dialects influenced by Karluk dialects and Tajik. It is argued that the dialectal features of Uzun Kungrat speech should be examined not only as isolated phonetic facts, but also as areal signs connected with local settlements, clan branches and speech contacts.*

Key words: *Uzun district, Kungrat dialect, areal linguistics, Kipchak dialect, j/ž-dialect, mixed dialect area, clan structure, language contact, Surkhandarya dialects.*

O'zbek xalq shevalari tarixiy taraqqiyot, etnik tarkib, aholining hududiy joylashuvi, xo'jalik faoliyati va qo'shni tillar bilan aloqasi natijasida shakllangan murakkab lisoniy tizimdir. Shuning uchun har bir shevani faqat fonetik yoki leksik birliklar yig'indisi sifatida emas, balki muayyan hududning tarixiy-etnografik va ijtimoiy-lisoniy xotirasini aks ettiruvchi hodisa sifatida o'rganish lozim. Uzun tumani Qo'ng'iro't shevalari ham ana shunday ko'p omilli shakllanish jarayoniga ega bo'lgan areal birliklardan biridir.

Areal lingvistika sheva xususiyatlarining geografik makonda tarqalishini, ularning izoglossa, kontakt hududi, markaz va chekka nuqtalar orqali namoyon bo'lishini o'rganadi. S. Ashirboyev ta'kidlaganidek, areal yondashuv til va sheva belgilarining hududlar bo'ylab qanday tarqalishini aniqlash, ularni lingvistik xarita va izoglossalar asosida ko'rsatish imkonini beradi [Ashirboyev 2023; 5-9]. Shu sababli Uzun tumani Qo'ng'iro't shevalarining tarqalishi ham oddiy etnik ro'yxat sifatida emas, balki sheva belgilarining hududiy harakati va kontakt muhiti bilan bog'liq tarzda tahlil qilinishi kerak.

Uzun tumani Surxondaryo viloyatining shimoliy-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, Denov, Sariosiyo, Sho'rchi, Qumqo'rg'on tumanlari hamda Tojikiston Respublikasi bilan tutash hududda joylashadi. Bunday geografik holat tuman shevalarining shakllanishida qipchoq lahjasi vakillari, qarluq tipidagi o'zbek shevalari, tojik tili va adabiy tilning o'zaro ta'sirini kuchaytirgan. Shuning uchun Uzun tumani shevalari ichki jihatdan bir xil emas; ular orasida qipchoq xususiyatlarini izchil saqlagan hududlar bilan birga, til kontaktlari kuchli bo'lgan aralash areallar ham mavjud.

Surxondaryo shevalarini tasniflashda S. Rahimovning tadqiqotlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Olim voha shevalarini ž-lovchi, j-lovchi va ikki tilda

so'zlashuvchi guruhlariga ajratadi. Bu tasnif Uzun tumani Qo'ng'iro't shevalarini o'zbek shevalari tizimidagi o'rnini aniqlash uchun ham muhimdir. Chunki Qo'ng'iro't shevalarida uchraydigan ž-lashish, singarmonizm, old va orqa qator unlilar qarama-qarshiligi, q, γ, η kabi undoshlarning barqaror talaffuzi qipchoq lahjasiga xos belgilar bilan bog'liqdir [Rahimov 1985; 13-17].

X. Doniyorov Qo'ng'iro't urug'ini qipchoq-o'zbek komponentlari tarkibida ko'rsatadi va Qo'ng'iro'tlarning asosiy qismi Surxondaryo hamda Qashqadaryo hududlarida yashashini qayd etadi [Doniyorov 1968; 86-88]. Bu ma'lumot Qo'ng'iro't urug'ining keng tarixiy-etnik arealga ega ekanini ko'rsatadi. Biroq bunday umumiy tarixiy ma'lumotni Uzun tumani ichidagi aniq mahalla va qishloqlarga avtomatik tatbiq etib bo'lmaydi. Urug' mansubligi mahalliy shajara, respondent pasporti, og'zaki xotira va dala materiallari asosida alohida tekshirilishi zarur.

Mahalliy shajara materiallarida Qo'ng'iro't eli Mamatqulbiy nomi bilan bog'lanadi. Uning avlodlari Baxtamg'ali, Qo'shtamg'ali, Qonjig'ali, Ayinni/Oyinli va Tortuvli kabi tarmoqlarga ajratiladi. N. Norboyev ham Qo'ng'iro't qabilasining ichki tuzilishini Baxtamg'ali, Qo'shtamg'ali, Qonjig'ali, Oyini va Tortuvli kabi yirik tarmoqlar bilan bog'laydi hamda bu tarmoqlarning ko'plab ota va bo'linmalarga ajralishini qayd etadi [Norboyev 1997; 12-20]. Demak, Qo'ng'iro't shevalarining tarqalishini tushuntirishda geografik hudud bilan bir qatorda urug'-aymoq tizimi ham muhim ahamiyatga ega.

Qo'ng'iro't shevalarining barqaror saqlanishida aholining tarixiy turmush tarzi ham alohida rol o'ynagan. Qo'ng'iro'tlarning ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi hayoti, chorvachilik, yilqichilik, qo'y-echkichilik va yaylov madaniyati bilan bog'liq faoliyati ularning turli hududlarga tarqalishiga sabab bo'lgan. Daryo bo'ylari, tog' etaklari, yaylovlar va dehqonchilikka qulay yerlarga joylashish jarayoni sheva arealining kengayishiga ta'sir ko'rsatgan. A. Turdialiye Denov hududidagi Qo'ng'iro't vakillari zich yashagan qishloqlarda sheva xususiyatlarining kuchli saqlanganini qayd etadi [Turdialiye 2025; 83-84]. Bu kuzatish Uzun tumani Qo'ng'iro't shevalarini baholashda ham metodik asos bo'la oladi.

Uzun tumani areali bo'ylab to'plangan ma'lumotlar asosida Qo'ng'iro't shevalarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni qipchoq fonetik xususiyatlarini nisbatan izchil saqlagan Qo'ng'iro't shevalari areali tashkil etadi. Bu guruhga Beshkapa, Oqostona, Mustaqillik, Saxovat, Yangi yo'l, Istiqlol, Tomchi, O'lanqul, Nurafshon, Fayzova, Surxon, Fayzobod, Madaniy turmush, Xursand, Yangiobod, Oqmachit, Bobotog', Toltug'ay, O'rmonchi, Do'g'ob, Zarkamar, Pahlavon va Nurli kelajak kabi qishloq hamda mahalla shevalari kiritiladi.

Mazkur arealda qipchoq lahjasiga xos fonetik belgilar nisbatan faol saqlangan. Xususan, ž-lashish, orqa qator i unlisining qo'llanishi, ö va ü kabi old qator lablangan unlilarning uchrashi, q va γ undoshlarining barqarorligi, o'zak va qo'shimcha o'rtasidagi fonetik moslashuv kabi belgilar Qo'ng'iro't shevasining qipchoq xarakterini ko'rsatadi. Bunday xususiyatlar alohida bir tovush hodisasi emas, balki muayyan hududlarda takrorlanadigan areal belgilar sifatida baholanishi lozim.

Ikkinchi guruhni aralash Qo'ng'iro't shevalari areali tashkil etadi. Bu guruhga Chinor, Kichik Jonchekka, Obod Yurt, Chaqar, Dehqon, Mustaqillikning 22 yilligi, Serharakat,

Yangi shahar, Obizarang, Qarashiq, Do'stlik, Xatib Qahramon, Tojikobod, Yangi hayot, Guliston, Uzunqishloq, Yangi ro'zg'or, Mehnat, Malandiyon, O'zbekiston, Ittifoq va Xo'jaquliston kabi hududlar kiritiladi. Bu o'rinda "aralash" atamasi shevaning yo'qolganini emas, balki uning faol til kontaktlari sharoitida yashayotganini bildiradi.

Aralash Qo'ng'iro't areallarida qipchoq xususiyatlari bilan birga qarluq shevalari, adabiy til va tojik tili ta'sirida yuzaga kelgan variantlar ham uchraydi. Masalan, bir hududda ž-lashish, ĭ, ö, ü kabi qipchoqona belgilar saqlansa, boshqa nutqiy holatda j-lovchi, adabiy tilga yaqin yoki kontakt natijasida o'zgargan shakllar paydo bo'lishi mumkin. X. Fayziyeva Boysun-Sho'rchi guruhi shevalarida ham ž-lovchi qipchoq, j-lovchi qarluq va ikki tilda so'zlashuvchi shevalar bir hudud doirasida bir tekis tarqalmaganini ko'rsatadi [Fayziyeva 2023; 22, 29-31]. Bu holat Uzun tumani materiallari uchun ham muhim qiyosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

S. Rahimovning tarixiy Sariosiyo hududiga oid ma'lumotlari Uzun tumani shevalarini izohlashda alohida ahamiyatga ega. 1959-1991-yillarda Uzun hududi Sariosiyo tumani tarkibida bo'lganligi sababli, eski ilmiy manbalardagi ayrim Sariosiyo punktlari bugungi Uzun tumani areali bilan bog'lanishi mumkin. Rahimov sanagan Fayzova, Oqostona, Bobotog', Oqmachit, Toltug'ay va Xursand kabi qishloqlar hozirgi Uzun tumani sheva arealini tarixiy-dialektologik jihatdan tushuntirishga yordam beradi [Rahimov 1985; 14-15]. Biroq bu ma'lumotlar mazkur punktlardagi barcha aholini Qo'ng'iro't urug'iga mansub deb isbotlamaydi; urug' mansubligi mahalliy dalillar bilan mustahkamlanishi kerak.

Uzun tumani shevalarini areal jihatdan baholashda "o'zbek aholisi ko'p" degan statistik faktni "Qo'ng'iro't shevasi mavjud" degan lisoniy xulosa bilan aralashtirmaslik kerak. Ayrim qishloqlarda do'rmon, yuz, farg'onachi yoki tojik aholisi vakillari yashashi mumkin. Shuning uchun mahalla yoki qishloqni Qo'ng'iro't shevasi arealiga kiritishda respondentning urug' mansubligi, dala yozuvi, mahalliy shajara va fonetik belgilar majmui birgalikda tekshiriladi.

Dala materiallari Dehqon, Obod Yurt, Kichik Jonchekka va Mehnat mahallalarini sheva materiallarining zichligi va urug' shoxlarining xilma-xilligi jihatidan tayanch hudud sifatida ko'rsatadi. Dehqonda bandikichik, Obod Yurtda movlush va boshqa mahalliy shoxlar, Kichik Jonchekkada Kalning so'fi shoxi, Mehnatda esa hiyra shoxiga mansub respondentlar qayd etilgan. Bu hududlar "markaziy tayanch hudud" deb atalganida tarixiy markaz emas, balki tadqiqot materiallarida qipchoq xususiyatlari nisbatan aniqroq ko'ringan hudud nazarda tutiladi.

Mehnat, Malandiyon va Yangi hayot mahallalari o'zbek va tojik aholisi yonma-yon yashaydigan kontakt hududlar sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Bunday hududlarda uchraydigan har bir fonetik yoki leksik farqni darhol tojik tili ta'siri deb baholash ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Chunki institut, universitet, pensiya, texnikum kabi birliklar rus tili orqali kirgan xalqaro so'zlar bo'lib, ularning fonetik moslashuvi umumiy o'zlashma qatlam xususiyati bo'lishi mumkin. Kontakt ta'sirini aniqlash uchun o'zbek va tojik informantlar nutqidagi bir xil birliklarni qiyoslash zarur.

Demak, Uzun tumani Qo'ng'iro't areali bir markazdan tarqalgan mutlaq bir xil nutq hududi emas. U tarixiy ko'chish, urug' shoxlarining joylashuvi, tog'li va tekislik hududlar,

o‘zbek-tojik kontakt muhiti hamda zamonaviy ma’muriy chegaralar ta’sirida shakllangan ko‘p nuqtali arealdir. Bu arealning umumiylikini qipchoq shevalariga xos fonetik belgilar majmui ta’minlasa, ichki farqlarini geografik joylashuv, til kontaktlari va mahalliy etnik tarkib yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, Uzun tumani areali bo‘ylab Qo‘ng‘irot shevalarining tarqalishi tarixiy-etnik jarayonlar, geografik joylashuv, qo‘shni tillar bilan aloqa va mahalliy urug‘-aymoq tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. Qo‘ng‘irot shevalari o‘zbek tilining qipchoq lahjasiga mansub ž-lovchi belgilarni saqlagan bo‘lsa-da, tuman ichida bir xil darajada namoyon bo‘lmaydi. Ular qipchoq xususiyatlari izchilroq saqlangan hududlar va aralash kontakt hududlari ko‘rinishida farqlanadi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asoslanib shunday xulosa chiqarish mumkinki, Uzun tumani Qo‘ng‘irot shevalarini o‘rganishda faqat umumiy dialektologik tasnif bilan cheklanib bo‘lmaydi. Har bir mahalla va qishloq kesimida dala materiallari, respondent ma’lumotlari, mahalliy shajara va fonetik belgilar qiyosiy tahlil qilinishi kerak. Kelgusida mazkur shevalarning lingvistik xaritasini tuzish, izoglossalarni aniqlash va har bir sheva belgisining hududiy tarqalishini kartalashtirish Uzun tumani Qo‘ng‘irot shevalarining o‘zbek dialektologiyasidagi o‘rnini yanada aniq belgilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent: Bookmany print, 2023.
2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
3. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968.
4. Норбоев Н. Ўзбек элининг қабила ва уруғлари ҳақида. – Тошкент, 1997.
5. Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (фонетика, лексика). – Тошкент: Фан, 1985.
6. Раҳимов С. Сурхондарё областидаги ўзбек шевалари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1974.
7. Turdialiyeв A.X. Denov shevasini areal o‘rganish va til korpusiga joylashtirish. – Toshkent: Bookmany print, 2025.
8. Fayziyeva X.Ch. O‘zbek tili Boysun-Sho‘rchi guruh shevalarining lug‘at xususiyatlari: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2023.